



**O'zbekiston Milliy axborot agentligi**  
**O'zA Ilm-fan bo'limi**

Elektron jurnal  
2023-yil oktyabr soni №10 (48)

Toshkent-2023

# O‘ZBEKISTON MILLIY AXBOROT AGENTLIGI – O‘ZA ILM-FAN BO‘LIMI (ELEKTRON JURNAL)

**Ilmiy nashr**  
**2023-yil oktyabr oyi soni №10 (48)**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2019-yil 28-martdagi 263/7.1 va 263/7.4-son qaroriga binoan tashkil etilgan.

Elektron jurnalga kelgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e‘lon qilingan maqolalardan olingan parchalar O‘zA Ilm-fan bo‘limi (elektron jurnal)dan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Elektron jurnalga bir yarim oraliqdagi materiallar “Microcoft Word” redaktori, “Times New Roman” shriftida elektron versiya shaklida qabul qilinadi.

## **Tahrir kengashi**

A.Ko‘chimov  
A.Asqarov  
D.Yu.Yusupova  
A.X.Saidov  
T.O‘.Aripova  
Q.R.Allaev  
S.M.Turobjonov  
Sh.T.Qudratxo‘ja  
N.A.Husanov  
N.K.Achilov

Q.Sh.Omonov  
A.S.Sagdullaev  
S.S.G‘ulomov  
F.G.Nazirov  
R.D.Kurbanov  
M.H.Rustamboev  
N.M.Mahmudov  
I.S.Saifnazarov  
N.X.Oblomurodov  
G.A.Mardonova

## *Innovatsion g'oyalar va ishlanmalar*

### **OLIY TA'LIMDA DAVLAT TILINI O'QITISH MUAMMOLARI**

**Nishonboy Abdusattarovich HUSANOV**

professor

filologiya fanlari doktori

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

#### **Annotatsiya**

Maqolada "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi" hamda "Kasbiy nutq madaniyati" fanlarining nazariy-huquqiy asoslari, soha tili va nutq madaniyatini oliy o'quv yurtlarida o'qitishning nazriy-ilmiy ahamiyati hamda muallifning masala yuzasidan tavsiyalari berilgan.

**Tayanch so'zlar:** termin, mutaxassislik, ilmiy uslub, soha tili, soha terminlari, terminlarni qo'llash, matn tuzish, nutq, nutq madaniyati, nutq malakasini o'stirish, notiqlik mahorati.

### **ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЯЗЫКА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ**

**Нишонбой Абдусаттарович ХУСАНОВ**

профессор

доктор филологических наук

Университет узбекского языка и литературы имени

Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

#### **Аннотация**

В статье представлены теоретико-правовые основы дисциплин «Язык специальности» и «Культура профессиональной речи», теоретическая и научная значимость преподавания языка специальности и культура речи в высших учебных заведениях, а также авторские рекомендации

**Ключевые слова:** термин, специальность, научный стиль, язык специальности, отраслевые термины, употребление терминов, составление текста, речь, культура речи, развитие речевых навыков, ораторское искусство.

Insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tilining o'rni muhimdir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning ko'zgusidir. Mamlakatimizda ma'naviyat jabhasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarda til muammolari, xususan, ona tiliga, davlat tiliga e'tibor masalalariga alohida diqqat qilinayotganligi bejiz emas. Respublikamizning "Davlat tili haqida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlari, "Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur" va boshqa juda ko'plab hujjatlarda bu yo'nalishdagi ish-



larning asosiy jihatlari ko'rsatib berilgan. 1995-yil 21-dekabrda "Davlat tili haqida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Qonunning 7-moddasida nutq meyyorlari va terminologiya bilan bog'liq masalalar qamrab olingan: "Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi. Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tirof qilingan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son Farmoniga muvofiq mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish, ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish asosiy vazifa qilib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son va unga ilova qilingan 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish KONSEPSIYASIdagi vazifalar – mamlakat hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanish; ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni muntazam ravishda rasmiy muomalaga kiritib borish; davlat tili barcha fan tarmoqlariga oid ilmiy tadqiqotlarda ilm-fan tili sifatida nufuzga ega bo'lishi; ommaviy axborot vositalarining audiovizual asarlarida barcha ishtirokchilarning o'zbek adabiy tilida so'zlashiga erishish, davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan faol integratsiyasini ta'minlash, o'zbek tilining ilm-fan va texnologiyalar sohasida qo'llanilishi imkoniyatlarini yanada kengayishini ta'minlash uchun ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish xususan, oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kafedralari sonini 2025-yilga qadar 120 taga, 2030-yilgacha esa 140 taga yetkazish, 2020-2021-o'quv yilidan davlat oliy ta'lim muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan yo'nalishlarida "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi" fanini o'qitish tizimini yo'lga qo'yish, barcha oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichida "Kasbiy nutq madaniyati" fanini joriy qilish kabi vazifalar belgilangan edi. Oliy ta'lim tizimida bu muhim vazifalarni bajarishga jiddiy kirishildi va ma'lum natijalarga erishildi. Xususan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida, shuningdek, o'zbek tili va adabiyoti mutaxassislarini tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlarida Konsepsiyada ko'rsatilgan vazifalar belgilangan vaqtda bajarilmoqda. Ammo nofilologik oliy o'quv yurtlarida Konsepsiyadagi vazifalar 2020–2021, 2021–2022, 2022–2023-o'quv yillarida ma'lum darajada bajarilgan bo'lsa-da, 2023–2024-o'quv yilidan qoniqarsiz ahvolga tushdi, ya'ni nofilologik o'quv yurtlarida "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi", "Kasbiy nutq madaniyati" fanlari o'qitilishi to'xtatildi.

Bugungi kun uchun muhim bo'lgan va davr taqozo etayotgan dolzarb muammo – soha leksikasini, terminlarini talabalarga o'rgatishdir. Davr bo'lajak mutaxassislarining sohaga oid leksikani, soha tilini o'rgatishni taqozo etmoqda. Soha tilini, terminlarini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega, chunki atamashunoslik adabiy tilning muhim belgisi hisoblanadi. O'zbekistonda sodir bo'layotgan ulkan o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan tub islohotlar, fan-texnologiya taraqqiyoti, xorijiy davlatlar bilan ilmiy, texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tilimizda terminologik birliklar ko'payishiga, soha tilining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Mustaqillikdan so'ng rus va xorijiy tillardan terminlarini qabul qilishda quyidagi usullar tanlandi.

1. Ko‘plab terminlar ona tili imkoniyatlari asosida o‘zbekchalashtirildi. Bunda bir qator terminlar o‘zbek tilidagi tayyor muqobillari bilan berilmoqda, ma’lum qismi esa tarjima qilinib ishlatilmoqda, bir qismi esa o‘zbek tili qonun-qoidalari asosida yasaldi: aukcion–kimoshdi, makler–dallol, kommersant–tijoratchi, kommissionnie voznagrajdeniya–vositachilik haqi, ekonomika–iqtisodiyot, chek na predyavitelya–oq chek, shaxssizchek, aksioner–aksiyador, biznesmen–bizneschi, anketa–so‘rovnoma, defitsit–taqchil, litsenziya–ruxsatnoma, kapital mablag‘, reforma – islohot va hokazolar.

2. Yana bir usul dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida ishlatilib kelinayotgan baynalmilal terminlarning o‘zbek tiliga ham o‘z holicha o‘zlashtirilishidir. Bu o‘rinda shuni ta’kidlamok zarurki, yangidan kirib kelayotgan terminlarning hammasiga ham o‘zbekcha muqobilini topish qiyin. Shuning uchun ularning asosiy qismi dunyoning ko‘pchilik mamlakatlari tillarida bir shaklda o‘z asl holicha ishlatiladi va bu qo‘llanish dunyo bizneschilari axborot almashinuvi uchun qulay: auditor, avizo, lizing, menedjer, valyuta, dollar, kredit, banknot, akkreditiv, forfeting, libor va boshqalar.

3. Terminlarning ba’zilari ma’lum vaqtgacha turli muqobillarda qo‘llanildi: rus tilidagi “aksioner noe obshchestvo” termini o‘zbek tilida aksionerlik jamiyati, hissadorlik jamiyati, aksioner jamiyat kabi variantlarda; “barter” termini mol ayirboshlash, tovar ayirboshlash, muvozanat, barter variantlarida; “broker” termini broker, dallol, kelishtiruvchi, bitishtiruvchi, vositachi variantlarida; “demping” termini esa demping, arzonga sotish, narxni tanlash, molni chetga juda past narxda sotish kabi variantlarda ishlatildi. Terminlarni qo‘llashdagi har xilliklar soha mutaxassislarini chalkashtiradi, axborot almashinuvini qiyinlashtiradi. Shuning uchun terminologiyadagi asosiy prinsip – bir tushunchaga bitta termin ishlatilishiga erishish dolzarb masala hisoblanadi.

Umuman, xorijiy terminlarni o‘zbek tiliga qabul qilishda uning quyidagi jihatlariga e’tibor berish kerak bo‘ladi: terminning o‘zbek tilini tovush tizimiga mosligiga, uning o‘zbekcha muqobili bor-yo‘qligiga, kalka yoki tarjima qilish zaruriyatiga, terminning ma’nosiga, sodda va ravonligig, mazmun-mohiyatiga. Terminlarning ishlatilishini tartibga solish orqali ularning milliy tilimizda to‘g‘ri va o‘z o‘rnida qo‘llanilishiga erishish mumkin..

O‘zbekistonda iqtisodiyot jadal sur‘atlarda rivojlanayotgan bir vaqtda soha terminlarini o‘rganishga ehtiyoj katta. Zero, «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonda «...mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish» [1] muhim vazifalardan biri sifatida ta’kidlangan. “Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilingandan so‘ng turli sohalariga oid terminlarni tadqiq etishga jiddiy kirishildi. Xususan, H.Dadaboyevning XI-XIV asrlar turkiy yodgorliklardagi ijtimoiy-iqtisodiy terminlar tadqiqiga bag‘ishlangan monografiyasi (1991), I Yo‘ldoshevning o‘zbek kitobchilik terminologiyasining shakllanishi, taraqqiyoti va tartibga solish (2005), X. Jabborovning o‘zbek tilining dehqonchilik leksikasi (2017), I. Islomovning o‘zbek tilining geografik terminologiyasi: tizimi, genezisi, semantik strukturasi va leksikografik talqini (2021)ga oid doktorlik dissertatsiyalarida sohalar terminlari atroflicha tadqiq etildi.

Davr soha terminologiyasi bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar olib borishni, o‘quv adabiyotlar – darslik va o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv lug‘atlari yaratishni talab qilmoqda.

O‘zbek tilidagi moliya-iqtisod terminlarini talabalarga o‘rgatish oliy ta’limdagi muhim muammolardan biri hisoblangani uchun Toshkent moliya institutida yuqori malakali va davlat



tilida savodxon talabalarni tayyorlash maqsadida o‘quv rejasiga soha tili va terminlarini qamrab olgan yangi fanni kiritishga erishdik, yani 1997-yilda “Mutaxassislik tili”ni tanlov fani sifatida o‘quv rejasiga kiritildi hamda “Mutaxassislik tili” fani bo‘yicha ma‘ruzalar matni va “Mutaxassislik tili” o‘quv qo‘llanmasini chop ettirdik. Keyinchalik bu fanga o‘zgarishlar kiritildi va 2005-yilda N.Husanov, Z.Miraxmedovalarning “Iqtisodiyot atamaları va ish yuritish” kitobi nashrdan chiqdi. O‘quv qo‘llanmada iqtisodiyot tili va terminologiyaning muhim muammolari – o‘zbek iqtisodiyot terminologiyasi tarixi, iqtisodiyot leksikasining boyish manbalari, iqtisodiy terminlarning yasash usullari, terminlarni qo‘llash va tartibga solish masalalari, iqtisodiyot tili va tarjima muammolari, iqtisodiyot sohasida ish yuritish va hujjatchilik mavzulari qamrab olindi [3]. Davr talabi va xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib 2018-yilda fan nomi “Biznes muloqot va akademik yozuv” deb nomlandi. Fanni nomlashda 20dan ortiq xorijiy adabiyotlar ko‘rib chiqildi va Stephen Baileyning “Akademic writing” [5] hamda Vikram Bizen Priyaning “Business communication” [6] kitoblaridan foydalanildi. “Akademic writing” fani Oksford, Brayton, Singapur, Tokio, Praga, Derbil universitetlarida o‘qitiladi va Stephen Belli bu fandan saboq beradi. N.Husanov, R.Xojaqulova “Biznes muloqot va akademik yozuv” darsligii 2019-yilda chop etildi va quyidagi mavzularni qamrab oldi: fanning maqsad va vazifasi, notiqlik tarixi, biznes muloqot va nutqiy faoliyat, biznes muloqot shakllari, biznes muloqot jarayoni va muhokama, jamoa o‘rtasidagi muloqot, madaniy nutqning kommunikativ sifatlari, mutaxassislikka oid so‘z va terminlarning imlosi, yasalishi va qo‘llanishi, matn yaratishning o‘ziga xos xususiyatlari, iqtisodiy hujjatlarni yuritish va yozish, iqtisodiyotda ilmiy matnlar yaratish, mustaqil ishlash uchun topshiriqlar, testlar [4].

Uzoq yillik tajriba va kuzatishlardan kelib chiqib soha tili va terminologiyasiga bag‘ishlangan yangi “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanini oliy o‘quv yurtlarida tiklash kechitirib bo‘lmaydigan vazifa deb hisoblayman.

Zero “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanining vazifasi talabalarga soha terminologiyasining nazariy va amaliy ahamiyati, o‘zbek tili terminologiyasining tarixi va hozirgi holati haqida ma‘lumot berish, terminlarining yasalish va semantik-genetik xususiyatlarini yoritish, terminlarining mavzuiy guruhlari, leksik-semantik hodisalari, paradigmaticasi, struktural xususiyatlarini ochib berish, sohaga oid lug‘atlar va o‘quv adabiyotlarda terminlarning aks etishi hamda terminlarni to‘g‘ri qo‘llash va tartibga solish masalalarini ko‘rsatish, soha mutaxassislarning maqola, esse, taqriz yozish bo‘yicha mahoratini oshirish sohasiga oid matnlarni tuzish va tahrir qilish, sohaga oid hujjatlarni to‘g‘ri yozish usularini o‘rgatishdan iborat.

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fani oliy ta‘limning barcha yo‘nalishlariga zarur va kerakli fan bo‘lgani uchun quyidagi mavzularni tavsiya etamiz.

1. “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanining maqsadi va vazifasi.
2. Mutaxassislik tili va soha terminologiyasi.
3. Soha terminologiyasining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari.
4. Mustaqillik davri soha terminologiyasining taraqqiyoti.
5. Soha terminlarining boyish usullari va yasalish xususiyatlari.
6. Soha terminlarining sintaktik tuzilishi va xususiyatlari .
7. Soha terminlarining semantik xususiyatlari termin-metaforalar; terminlashish, determinlashish, transterminlashish jarayonlari.
8. Soha terminlarining mavzuiy guruhlari va tasnif.
9. O‘zbek tili soha terminlarining leksik-semantik xususiyatlari: sinonimiya, antonimiya, polisemiya, omonimiya, paronimiya hodisalari.
10. Sohaga oid lug‘atlarning xususiyatlari va tuzilishsh tamoyillari: manba, so‘zlik, tarji-

ma, izohlash usullari va tasdiqlovchi misollarni berish.

11. Soha terminlarini tartibga solish va tarjima.
12. Sohaga oid matn tuzish va tahrir.
13. Uslublarning turlari va xususiyatlari.
14. Ilmiy uslub va soha oid matnlar tahlili.
15. Rasmiy-idoraviy uslub va sohaga oid hujjatlar.

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fani talabalarda o‘zbek tili soha terminlarining yasash xususiyatlarini o‘zlashtirib so‘zlarni xatosiz yasash, sohaga oid so‘z va terminlarni o‘z o‘rnida va to‘g‘ri ishlatish, soha terminlarining turli adabiyotlarda qo‘llanishi bo‘yicha fikr, taklif va xulosa berish, mutaxassis va talabalar uchun terminlarining so‘zlik va izohli lug‘atini tayyorlash, soha terminlarining semantik-struktural xususiyatlarni o‘zlashtirib o‘z va xalqaro terminlarning o‘zbek tilida berilishi bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish, turli uslublarda sohasiga oid matnlar tuzish, hujjatlarni to‘g‘ri yozish va to‘ldirish, mazmunli va mantiqli maqola, esse, taqriz, kurs va malaka ishi yozish kabi muhim malakalarni shakllantirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda o‘zbek tili davlat tili sifatida siyosiy huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotimizda faol qo‘llanmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda. Jamiyatimizning har bir fuqarosi, har qanday mutaxassis, eng avvalo, o‘z ona tilini e‘zozlamog‘i lozim. Buning uchun esa tilimizning tuganmas imkoniyatlarini to‘la egallash, mustaqil fikrni ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olish, nutqiy madaniyat malakalarini shakllantirish kerak. Zotan, nutq madaniyati tildan bemaol va maqsadli foydalana olishni ta’minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir. Nutq madaniyati insonning ma’naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma’rifiy rivojida muhim rol o‘ynaydi. Nutq madaniyati tildan maqsadga muvofiq foydalangan holda to‘g‘ri va chiroyli nutq tuzishni o‘rgatadi. Ta’lim va tarbiya jarayonida asosiy vosita nutq hisoblanadi, ayniqsa, mutaxassislik sohalari bo‘yicha nutq madaniyatini mukammal bilish talab etiladi.

Nutqda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish masalasi bilan shug‘ullanish ishiga faqat tilshunoslar emas, balki mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha soha vakillari e’tibor berishlari zarur, chunki nutq madaniyati umumxalq madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lib, kishilarning yuksak madaniyatli bo‘lishlarini belgilovchi omillardan biridir.

“Kasbiy nutq madaniyati” fani talabalarda til imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qildirish, ularning notiqlik mahoratini oshirish, o‘z faoliyatlarini kasbiy soha bilan bog‘liq holda o‘quv topshiriqlari orqali maqsadli boshqara olish, nutq madaniyati, yozma va og‘zaki nutq malakasini o‘stirish, tinglovchilar oldida yaxshi nutq so‘zlash va notiqlik mahoratidan foydalana olish qobiliyatini oshirish, o‘quv sohasida, professional ish-amaliyotida mazmunli va ta’sirchan og‘zaki nutq namunasini o‘zbek tilining leksik, orfoepik va grammatik me’yorlariga muvofiq tarzda tuza olish ko‘nikmasini rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Fanning vazifalari quyidagilardan iborat: nutq madaniyatining asosiy tushunchalari, maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish, yozma va og‘zaki nutqning o‘ziga xos qonuniyatlarini talqin va tahlil etish orqali o‘z malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirish, buyuk notiqlarning nutq madaniyati haqidagi fikr-mulohazalarini o‘zlashtirish orqali muloqot madaniyatiga oid bo‘lgan tushuncha va tasavvurlarni uyg‘otish, notiqlik tarixidan voqif bo‘lish hamda mashhur voizlarning notiqlik va nutq odobi to‘g‘risidagi qarashlarini o‘rganish, adabiy til me’yorlari haqida ma’lumot berish, badiiy tasvir vositalarini o‘rgatish va ularni amalda qo‘llay olish ko‘nikmalarini hosil qilish, nutq uslublari haqida ma’lumot berish hamda ularning o‘ziga



xos xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil etish metodikasini o'zlashtirishga o'rgatish, nutqning asosiy sifatlari (to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliqi, tozaligi, ifodaliligi, maqsadga muvofiqligi) haqida bilim berish, matn tuzish tartib-qoidalarini bilish, yozma sharhlar, izohlar, mulohazalar yoza olish qobiliyatini shakllantirish, nutq madaniyatining lingvistik va ekstralingvistik omillari haqida tushuncha, malaka va ko'nikma hosil qilish, nutqning lisoniy va nolisoniy me'yor, qoidalari bilan tanishtirish, notiqlik sirlari, muloqot madaniyatiga doir qarashlar, ilmiy va amaliy yo'nalishlar haqida tasavvur hosil qilish, ta'lim-tarbiya tizimida muloqot madaniyati va nutq odobining shakllanishida o'qituvchi hamda talabalarning nutqiy faoliyatiga e'tibor berish, yosh avlod ongida o'z ona tili bilan faxrlanish tuyg'usini uyg'otish, uni sevish va ardoqlashga o'rgatish hamda uning sofligini saqlashga intilish.

Nutq madaniyatini egallash, madaniy gapirishga intilish, fikr mahsulini matnga to'laqonli tushira olish mahorati barcha kasb egalarining, mutaxassislarining eng dolzarb vazifasi bo'lmog'i lozim. Hozirgi kunda hayotning o'zi nutq madaniyati muammosini kun tartibiga qo'yimoqda; mutaxassislar so'zga chechan, badiiy didli, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda yuqori darajada ifodalay oladigan bo'lishlari lozim. Bo'lg'usi mutaxassislar rasmiy doiralarda faoliyatida soha tilini va muomala madaniyatini namoyon qilishlari zarur.

Nutq madaniyati jamiyatning madaniy taraqqiyoti, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Nutq madaniyati eng muhim aloqa-aralashuv quroli – tildan maqsadga muvofiq foydalangan holda to'g'ri va chiroyli nutq tuzish yo'llarini o'rgatadi. Erkin fikrlaydigan fuqaro, mutaxassisni tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi vazifa sifatida e'tirof etilayotgan hozirgi kunda nutq madaniyatining ahamiyati juda katta.

Nutq madaniyati jamiyat taraqqiyotining muhim belgisi bo'lib, unda millat ma'naviyati o'z aksini topadi. Mustaqil yurtimizda ma'naviy islohotlar jadal sur'atlar bilan olib borilayotgan bir paytda nutq madaniyati masalalariga bo'lgan e'tibor ham ortmoqda. Nutq madaniyati masalalari tilshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammoni hal etish oliy ta'limdagi dars jarayonlarini yanada takomillashtirish, ma'ruzalarning sifatini oshirish bilan ham bog'liq. Bunda o'qituvchining nutqi alohida ahamiyat kasb etadi: darsda o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik ustunlik qilmoqda. Ularning birgalikdagi ijodiy amaliy faoliyati natijasida sog'lom muhit yaratilmoqda. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va til siyosatining izchillik bilan to'g'ri amalga oshirilishi natijasida nutq madaniyati ham kun sayin rivoj topmoqda. Olimlarning fikricha, til o'qitishdan asosiy maqsad, avvalo, kishida nutqiy savodxonlikni oshirishdir. Bu maqsadning qanday amalga oshirilishi esa birinchi navbatda o'qituvchiga, uning ijodiy izlanishiga bog'liq bo'ladi.

Mustaqil davlatchiligimiz yanada takomillasha borayotganligi tufayli xilma-xil qonunlarning qabul qilinishi minglab yangi terminlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lmoqda, chunki ijtimoiy hayotda har qanday tushuncha yoki hodisaning tug'ilishi uning in'oksi sifatida terminlarning boyishiga sabab bo'ladi. Ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, mamlakatimizning xalqaro hamkorlik aloqalari tobora kengaymoqda, chetdan yangi tushuncha, so'z va ibora kirib kelmoqda. Yuzaga kelayotgan bu tushunchalar tilda so'z yoki termin sifatida o'z in'oksini topar ekan, ular milliy tilning o'z qonuniyatlari asosida ifodalanmog'i va shakllanmog'i shart. Tanlanayotgan va kundalik muloqotga kirib borayotgan terminlar voqea-hodisa va belgi- tushunchalarning aniq nomining ifodalashi, boshqa tillardan o'zlashayotgan terminlarning o'zbek tilidagi muqobili adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishi muhim masaladir. Bu masalalar mutaxassislar bilan tilshunoslar hamkorligida o'zining aniq yechimini topsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lajak mutaxassislar sohalariga oid bilimlarni davlat tili zaminida, shu tilning o'ziga xos qonuniyatlari, uslubi va terminologiyasi bilan



uzviy bog‘liq holda o‘rganmoqlari hayot taqozosidir.

“Kasbiy nutq madaniyati” mustaqillik tufayli vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, madaniy-ma’naviy turmush talab etayotgan hayotiy hodisadir. Milliy notiqlik maktabini yaratish, nutq madaniyatini targ‘ib qilish va yoshlar ongiga singdirish, ularni milliy mafkura g‘oyalari bilan qurollantirish, huquqiy demokratik jamiyat qurish bevosita bo‘lg‘usi mutaxassislarining savodxonligiga bog‘liqdir.

Yuqoridagilar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari asosli ekanligini tasdiqlaydi: “Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi” [2].

Talabalikning dastlabki davrlarida talabalarda mustaqil jummalardan matn tuza olish, bir fikrni ikkinchi fikrga bog‘lay olish malakalari sust bo‘ladi. So‘z boyligi nochor, so‘z qo‘llash qobiliyati rivoj topmagan, tuzayotgan jummalari g‘aliz va noravon bo‘ladi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun bo‘lg‘usi mutaxassislar ixtisoslikka oid barcha fanlar qatorida “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” va “Kasbiy nutq madaniyati” fanlarini ham zarur darajada o‘rganishlari lozim. Bu fanlar bo‘lajak mutaxassislarda sohaga oid so‘z va terminlarni o‘z o‘rnida va to‘g‘ri ishlatish, turli uslublarda sohaga oid matnlar tuzish, hujjatlarni to‘g‘ri yozish va to‘ldirish, muomala odobi, mazmunli va ta’sirchan nutq tuzish, tilni his etish didini tarbiyalash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish vazifalarini o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘ygan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni //http://uza.uz/oz/documents/zbek-tilining-davlat-tilisifatidagi-nufuzi-va-mav-eini-tubd-22-10-2019

2. Mirziyoyev Sh. Biz kelajagimiznin mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 189 b.

3. Husanov N., Miraxmedova Z. Iqtisodiyot atamalari va ish yuritish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2005. – 123 s.

4. Husanov N.A., Xo‘jaqulova R.Sh. Bizness muloqot va akademik yozuv. –Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2019. – 319 s.

5.Stephen Bailey. Academic writing. Handbook for internatinal student’s. London, 2015.

5.Vikram Bisen Priya. Bizness comunication. New Dehli, 2009.



# MUNDARIJA

## *Innovatsion g'oyalari va ishlanmalar*

**N.A.HUSANOV.** Oliy talimda davlat tilini o'qitish muammolari ..... 3

## *Iqtisodiyot*

**R.V.ABDULLAEV.** Islom va an'anaviy iqtisodiyotlar ijtimoiy himoya tizimlarining qiyosiy tahlili ..... 10

**B.D.XAJIEV.** O'zbekistonda daromadlar taqsimoti samaradorligiga soliqlar ta'siri va ularning o'zgarish tendentsiyalari ..... 16

**T.N.PARDAEV.** Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda bojxona to'lovlarini qo'llashni takomillashtirish ..... 24

**A.T.MAMAJONOV.** Avtoservis xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda ichki auditning vazifalari va obyektlari ..... 31

**O.N.XUSANOV.** Nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari ..... 36

**S.O.ChO'PONOV.** Mintaqada innovatsion xizmatlar turlarini rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribalari va ularni milliy iqtisodiyotimizda qo'llashning ahamiyati ..... 43

**T.D.MAXMUDOV.** Investitsiyalarni jalb etishning mintaqaviy xususiyatlari va ilmiy-nazariy asoslari ..... 49

**O.A.SARMANOV.** Bojxona to'lovlarining yig'iluvchanligiga ta'sir etuvchi omillardan samarali foydalanish istiqbollari ..... 59

**E.X.BOTIROV.** Meva-sabzavotchilik klasterlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning strategik ustuvor yo'nalishlari ..... 66

## *Yuridik*

**Sh.Sh.SHARAPOV.** "Ta'lim olish huquqi" tushunchasining xalqaro huquqiy hujjatlarda aks etishi ..... 72

**M.M.SULTONOV.** Treyding niqobi orqali elektron mablag'larni talon-toroj qilinishiga qarshi kurashish masalalari xususida ..... 80

**Sh.Sh.TIMIROVA.** O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida shaxslarning toza atrof-muhitda yashash huquqining tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili ..... 86

**S.I.AMIROV.** Hokimiyat bo'linish prinsipining nazariy asoslari ..... 92

**S.A.JALILOVA.** Ishni sudga qadar yuritishda himoyachining dalillarni to'plash va baholash huquqlarini takomillashtirish ..... 100